

## **OQSAROY VA ABDULLAXON 2 HAQIDA TARIXIY QARASHLAR**

Shaxrizoda Baxtiyorova Ulug'bek qizi

BuxDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti 1 MIG' 22-guruh talabasi  
shaxrizodabaxtiyorova97@gmail.com, +998906364244

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur qudirgan Oqsaroy majmuasining buzilishida nega Abdullaxon 2 ga nisbat berilgani va keyinchalik Oqsaroy qanday vayron etilgani ochib berilgan.

**Kalit sözlar:** Oqsaroy, Abdullaxon 2, Amir Temur, Shahrисabz va Kitob bekliklari. Abdullaxon 2 buzuvchimi yoki tuzuvchimi?

Tarix faqat fakt va sanalar yiğindisi emas, farazlar töqnashadigan maydon ham sanaladi. Har narsaning öziga yarasha sababi, ildizi bòladi. Abdullaxon 2 davri va u yaratgan siyosiy muhitga ijobiy hamda salbiy qarashlar shakllangan. Katta saltanatga Amir Temurdan sòng Abdullaxon 2 asos soladi. Ijobiy qarash sifatida rossiyaliklar uning davlatiga nisbatan "Buyuk Buxoriya" degan iborani qöllashgan edilar. Salbiy qarash esa Amir Temur qudirgan Oqsaroyni aynan Abdullaxon 2 buzdirgan degan fikrlar ham yòq emas. Xòsh, bu fikr nega Abdullaxon 2 ga borib taqaladi? Oqsaroy qanday qilib vayron etilgandi?

Temuriylar davrida Shahrисabz ham Samarqand singari Temuriyzodalarning töqnashuvlariga guvoh bòlgan. Shunday bolsada Mirzo Uluğbek taxtga ötirishi bilan bobosining ishlari davomchisi sifatida Shahrисabzda Kòk gumbaz singari imoratlar bino qildi. Shahrисabz va Oqsaroy temuriylar uchun shonli yoki qiyinchilik davrlarda ham Samarqandga ya'ni poytaxtga yaqin boshpana boldi. 16-asr oxiriga kelib ikkita sulola temuriylar va shayboniylarning töqnashuvida albatta boshqa davrlarida bòlganidek, shaharlardagi imoratlar ham zarar kòrdi. Lekin Abdullaxon 2 ning Shahrисabzdagi obidalarni jumladan Oqsaroyni vayron qilgan deyish notögri. Bunga javoban tarixiy manbalarga murojaat qilamiz. Abdullaxon 2 hukmronligining kòp qismi shayboniyzodalarning özaro kurashlarini daf qilish davlatni mustahkamlash yòlidagi harakatlardan iborat boldi. 1552-yilda Abdullaxon 2 Shahrисabzni shayboniyzoda Hoshim Sultondan tortib olib ukasi Ibodullo Sultonga topshiradi. 1567-yilning dekabriga kelib Samarqand hokimi Abulkayr Sulton

Shahrisabzni egallab oladi. Hofiz Tanish Buxoriy òzining "Abdullanoma" asarida hikoya qilishicha Abulxayr Sulton qal'aga kirib olgan vaqtida bir guruh navkarlari Abdullaxoniga xandaq suvidan buzib òtib qal'aning burj va devorlarini yiqitamiz deganda Abdullaxon bunga rozi bòlmaydi va "Umid shulki, oqibatni öylamovchilar oxiri òz qilganlaridan pushaymon bòladilar" deydi. Yana ushbu asarga kòra 1568-yil Samarqanddan kelgan shayboniyzodalar Shahrisabzni egallaydi. 1569-yil Abdullaxon Shahrisabzni qaytarish uchun otlanadi. Tarixchi bu haqda "Ul hazrat Shahrisabz tomon yuzlandi. Qal'a atrofiga qòngandan sòng, uning buzilgan qal'asini tuzatishga buyurdi" deb yozib qoldirgan. Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilsak, Abdullaxon 2 buzgunchi emas, aksincha tiklovchi bunyodkor inson bòlganligini kòrishimiz mumkin. Shahrisabz qal'a devorining buzilishi Abulxayr Sultonning talonchiligi talonchiligi natijasida bòlib Oqsaroyning esa ayrim joylari- sirli koshinlari kòchgani ehtimol. Lekin nima uchun bu ishlarda Abdullaxoniga nisbat berildi degan savolga kelsak, bizningcha Amir Temur kabi Sohibqiron deb atalgan òz davrining qolaversa, shayboniy hukmdorlar ichida eng yetuk siyosatdon lashkarboshi ma'rifatli bunyodkor shaxsni-Abdullaxonni qoralash va uning haqiqiy siyratini xalqdan turtishga intilish bòlgani bu orqali barchamiz bilgan òzligimizni anglashdan sobiq shòro hukumatining qanchalik qòrqqanini kòrishimiz mumkin. Lekin Oqsaroy shunchalik mustahkamligidan unga òsha davr qurollari bilan katta talafot yetkazish ham qiyin bolgan. Buni keyinchalik kimlar amalga oshirganini bilish uchun yana manbalarga yuzlanamiz. Ashtarxoniyalar davrida Oqsaroy Shahrisabz kenagas beklari uchun ham qarorgoh vazifasini òtab keldi. Buxoro taxti manğit amirlari qòliga òtgach Shahrisabz va Kitob bekliklarining mustaqillikka intilishi Amir Haydar, Amir Nasrullo va Amir Muzaffar davrida bekliklarga qòshin tortishiga sabab bòladi. Bunday òzaro urushlar shahar devorlariga, imoratlariga bezzar bòlgan deb bòlmaydi, albatta. 1707-yili Oqsaroy peshtoqi tagida Buxoro xoni Ubaydullaxonning toj kiyib taxtga òtirgani haqidagi ma'lumotlar peshtoqning hali butunligidan dalolat beradi.

Muhammad Hakimxon Tòraning "Muntaxab ut-tavorix" asarida 1840-yili Doniyolbiy otaliq vafotidan sòng Oqsaroy imorati ostida Xòjaqulibiy parvonachi Shahrisabz amiri mansabiga òtkazilganligi yoziladi. Shunga kòra Rossiya imperiyasining tajovuzi Buxoro xonligi chegaralariga qadar kelguncha Oqsaroy Shahrisabz kenagas bekliklarining ma'muriy boshqaruv binosi sifatida qad kòtarib turgan deyishimiz mumkin boladi. Tarixchi Abulazim Somiy rus qòshinlarining

Shahrisabz va Kitob bekliklariga hujumini 1873-yil deb kòrsatsa, Rossiya imperiyasi harbiylarining hujjatlarida 1870-yil kuzida bòlgani qayd etiladi. Shahrisabz va Kitob bekliklarini bosib olishda jonbozlik kòrsatgan vayronkor general-mayor Abramov edi. Abramov 1870-yilning 31-avgustida yozfan raportida shaharlarni qirgınbarot qilgani haqida aytmasdan aholi shahardan uch chaqirimcha berida meni non tuz bilan qarshi oldi deb özini oqlashga urinsada, lekin uluğ tarixchilardan Lagofed rus quollarining kuchini va kòlob bòlib tòkilgan rus qoni evaziga olingan Shahrisabz va Kitobdek ulkan bekliklar Buxoro amirligiga berildi deya general Abramovning yashirganini oshkor qilib qøyadi. Mayorning 1875-yilda bosingan "Buxoro xonligi ocherki" asarida Temurning hashamatli Oqsaroyi Buxoroning shu davrdagi hamma imoratlarida kuzatilganidek xarobalardan iboratdir. Shunga qaramasdan bu vayrona hozir ham özining benazir gözalligi bilan kishini rom etadi. Janubi tarafdan gumbaz qoldiqlari yaqqol bilinib turadi. Vaqtida imorat bezagi bòlgan bu gumbaz hozirda nuragan bòlinmb bundan koshinlar va yozuvlар bilan bezatilgan ikki baland devor saqlanib qolgan. Bu sòzlardan bilinib turibdiki, oqsaroy chinakamiga tashqi ta'sir bòlmasa, xaroba bòladigan imorat emas edi. Buning ustiga oradan 50 yil òtib 1920-yilning 24-dekabrida sovet tuzumiga qarshi umumxalq qòzgalonini bostirish vaqtida Bin Bin degan kimsa tomonidan Oqsaroy tòlga tutilgani aytildi. Oqsaroy sovetlar davrida 74 yil davomida qarovsiz qolib ketdi. Oqsaroy Sohibqiron Amir Temur hazratlari hayotligida barpo etilgan eng salobatli, eng hashamatli, osmonòpar ma'muriy boshqaruв binosi sifatida qurilgan edi. Sharq me'morchiligining eng noyob jihatlari bilan Movarounnahr muhandislari topqırılıgi uyğunlashgan saroy binosi, aytish mumkinki, uluğvorligi, ichki-tashqi bezatilishi devoriy yozuvlari-kitobalari bilan jahonda yagona edi. Shahrisabzda old tomoni shimolga - Samarqandga qarab qurilgan Oqsaroy haqida keyingi asrlarda ham kòp gapirilgan, ham jim òtilgan. Buning sababalari siyosiy aqidalarga kòproq taqaladi. Yechim izlatadigan yana bir muhim qirra Oqsaroyning qachon va qanday vayrona holiga kelganligi muammosidir. Mustabid tuzum davrida nashr etilgan manbalarda Oqsaroyning qulashi 200 yil muqaddam sodir bòlganligi karomat qilingandi. Bu 1775-yil nari-berisi, degan gap. Unga ishoniladigan bòlsa, ösha davrdayoq, ya'ni 18-asrning ikkinchi yarmida Oqsaroy nurab, xaroba holiga kelgan va undan bor-yögi peshtoqning ikki old yon tomoni ustunlari qolgan bòladi. Manbalarni sinchiklab òrganish esa bu xulosaning fikrlarni chalǵitishni kòzlab aytilanidan dalolat beradi. Mustabid tuzum adabiyotida Oqsaroyning vayron

etilishi Abdullaxon 2 davriga taqab qøyilgan, asosiy vayronkor sifatida u ayblab kelingandi. Tarixiy manbalarni mutolaa qilishdan yiroq òquvchilar, nafaqat ular, ba'zi ilmiy xodimlar ham "avtoritetlar" bir bora aytib qòyan hukmnamo qarashlar asiri bòlishdan, aytilganlarni takrorlashdan özga imkonga ega bòla olmas edi. Endilikda masalaga oydinlik kirituvchi qancha tarixiy manbalar nashr etildi. Bular ayni vaqtda Oqsaroy tarixiga ham yòl ochdi. Oqsaroyni Abdullaxon 2 vayron etgan degan deb unga nisbat berishlarining sababi ham ancha ayon bòldi degan umiddaman. Negaki, mustabid tuzum Amir Temur singari buyuk davlat arbobining ishlarini chetga yashirib kelgan, buning qatorida Abdullaxon 2 ning ham qilgan ishlari sirligicha qolgan. Abdullaxon 2 Amir Temurdan sòng Movarounnarda nisbatan qat'iy siyosat yurgiza olgan yagona va sònggi davlat arbobi edi.

U Buxoro hokimiyatini tiklash maqsadida Qozoğistonning hozirgi Qarağanda viloyati ǵarbidagi, Sariq suv daryosining shimolida joylashgan Uluğtoǵga yetib borgach, toǵ tepasidagi bir minoraga bitilgan quyidagi sözlarga kòzi tushadi:"Tarix yetti yuz tòqson uchinda qòy yili, yozning ora oyi, Turonning sultonı Temurbek ikki yuz ming cherik bila Tòxtamishxon yurtiga intiqom uchun yurdi. Bu yerga yetib, belgi bòlsun deb bu minorani qurdirdi. Tangri nusrat bergay, InshaAlloh. Tangri el kishiga rahmat qilǵay. Bizni duo bilan yod qilgay." Mazkur bitiklar 1391-yili Amir Temur Tòxtamishxonga qarshi lashkar tortgan kezi shu toǵ ustiga chiqib, sòng bu yerda bir minora qurdirib, xarsang toshga òydirib yozdirgan xotira sòulari edi. Abdullaxon 2 buyuk Sohibqiron haqiga duolar òqittirib, òzi ham qarshi tomonda bir minora qurishga buyruq berdi va unga "Kimki bu manzilga qadam qòysa, xayrli duo ila bizni yod aylasin" sözlarini òydirtiradi. Amir Temur Turkiston shahrida Xòja Ahmad Yassaviy maqbarasi va masjidini qurdirgani ma'lum. Tugallanmay qolgan bu ishni oxiriga yetkazish Abdullaxon 2 ga nasib etadi. Abdullaxon 2 16-asming 80-yillarida Xurosonda, uning markazlari Hirot, Mashhadda, 90-yillarda Seyiston, Garmsir va to Xilmand daryosigacha bòlgan hududlarda öz saltanatini ornatdi, Qandahorni ham egallaydi. Uning davrida hozirgi Qarağanda (Uluğtoǵ)dan Xilmand daryosigacha, Sibir xonligidan Mashhadgacha bòlgan hududlar yana bir bor Oliy hokimiyati Buxoro qòl ostida birlashdi. Bunday katta saltanatga Amir Temurdan sòng Abdullaxon 2 asos soladi. Rossiyaliklar uning davlatiga nisbatan "Buyuk Buxoriya" degan iborani qòllashgan edi. Öz bunyodkorligi bilan Abdullaxon 2 nomini tarixga muhrladi. Albatta, bunday tuzuvchi va quruvchi shaxsdan vayronkorlik chiqmaydi. Hozirgacha xalq orasida ham u yoki bu inshoot

qurilishida Amir Temur yoki Abdullaxon 2 ga nisbat beriladi. Albatta, maftunkor Oqsaroyning qurilishi haqida tarixiy manbalardan, jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur va Klavixo Gonsalesning asarlari orqali ishonchli ma'lumotlar va gözal ta'riflarga egamiz. Amir Temur me'morchilik sohasining yuksak namunasi sifatida qurdirgan imoratlari ichida Oqsaroy eng balandi, gözal va salobatlisi bòlib, balandligi 70 metrdan ortiq bòlgani, 1380-1405-yillar davomida qurilgani ham obidaning me'moriy jihatdan naqadar mukammalligini bildiradi. Istiqlolga 32 yil to'layotgan bir davr oralig'ida olib borilayotgan davlatimiz islohotlari, ayniqsa, tariximizga bo'lgan munosabat, madaniy merosni asrab avaylash hamda turizmni rivojlantirish borasidagi ishlar, albatta, barchamizni quvontiradi. Xalqimizning bunga ijobiy munosabatini sayyoohlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsada, afsuski, ba'zi fuqarolarimiz ongida sobiq sho'ro davrida noxolis yozilgan risolalardagi fikrlarga ojizona ergashishni ko'ramiz. Bulardan biri Shahrисabzdagi Oqsaroy majmuasining buzilishi haqida ham ana shunday noaniqliklarni kuzatamiz. Shu sababdan biz Oq saroyning qurilishi, hashamati haqida emas qurilgandan keyingi o'tmishning suronli davrlarida qanday vayronagarchiliklarga uchragani haqida to'xtalmoqchi bo'ldik. Zero, bu urinishimiz «dengizdan bir tomchi» bo'lsada, tariximizni xolisona o'rganish uchun ko'proq kitob o'qishga undab, birgina manbani o'qib, biryoqlama fikr bildirishdan qochishga yordam beradi, deb umid qilamiz. Noyob insoniy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish, farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning muno-sib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak. Shunga ko'ra Vatan tarixi va madaniyati, jug'rofiyasi va iqtisodiyotini, qadimiylar urf-odatlarimizni har tomonlama o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Bog'chalardan tortib oliv o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'limgarbiya tizimlarida mazkur fan va bilimlarni o'qitishga muhim siyo-siy vazifa sifatida qaralmog'i lozim. Shayboniyxonlar o'zbek me'morchiligin rivojlantirishda temuriylardan so'ng eng ko'p hissa qo'shgan sulola sanaladi. Abdullaxon II bu suloladan yetishib chiqqan nafaqat mohir sarkarda, markazlashgan ulkan mamlakat qura olgan davlat arbobi bo'libgina qolmay, iste'dodli shoir ham bo'lgan. U "Xon" taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar bitgan. Temuriylar va shayboniyxonlar tarixini yoritishda birini ulug'lab, ikkinchisining yuziga qora bo'yoq chaplash insofdan bo'lmaydi. Ular va avlodlarining mangulikka daxldor badiy va madaniy merosi xalqimizning ma'naviy mulkiga aylangan. Shunday ekan, endi bizga,

bolalarimiz haqida tarixdan yolg'on - yashiq ertak so'zlamang. Balki tariximiz yuz yildir, balki uch yuz yil, balki undan ham ko'proqdir. Unutilgan va o'chirilgan tariximizni qaytaring!!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanova" ("Sharafnomayi shohiy") Toshkent "Fan" 1996-yil
2. Poyon Ravshanov "Oqsaroy tarixi" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2016-yil
3. Islom Abduqaniyech Karimov "Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir" 3-jild Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2016.
4. Mirzayev R. Entoni Jenkinsonning Buxoroga sayohati. Moziydan sado, 2004 yil. 4-son.B.33-34.
5. Rahmonov Sh.A. Tavka. Turon-Movarounnahr sivilizatsiyasi. – Toshkent, A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 2001.B.133-135.
6. Shirinov T. G'arb bilan Sharq uchrashgan diyor. "Xalq so'zi", 2004 yil 16 oktabr.
7. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. - Toshkent, 1997.B.118-119.
8. O'zbekistonning yangi tarixi. 1-jild. - Toshkent, 2000.
9. [www.e-tarix.uz](http://www.e-tarix.uz)
10. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
11. [www.arxeologiya.uz](http://www.arxeologiya.uz)